INNOVATIVE PUBLICATION
Journal of Effective Learning and Sustainable Innovation
Vol.4 №11 (2026). NOVEMBER
innovativepublication.uz

ODIL YOQUBOV — O‘ZBEK ADABIYOTINING ZABARDAST NAMOYANDASI.

ODIL YOQUBOV IS A PROMINENT FIGURE IN UZBEK LITERATURE.

ОДИЛ ЁГУБОВ – ВИДНАЯ ФИГУРА В УЗБЕКСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ.

Rabbimova Laziza Umidjon qizi
rabbimovalaziza25@gmail.com
Masharipova Mohinur Dilmurod qizi
Mohinurmasharipova79@gmail.com
Toshkent Davlat Yuridik Universitet huzuridagi H.K.Muhitdinova nomidagi Akademik litseyi 203-guruh o’quvchilari

Students of Group 203, Academic Lyceum named after H.K. Muhitdinova under Tashkent State University of Law.

Annotatsiya. Maqolada o‘zbek adabiyotining yirik vakili, xalq yozuvchisi Odil Yoqubovning hayoti va ijodiy yo‘li yoritiladi. Yozuvchining “Ulug‘bek xazinasi”, “Diyonat”, “Adolat manzili” kabi asarlari misolida uning ijodiga xos mavzular, badiiy mahorati va ijtimoiy-axloqiy qarashlari tahlil qilinadi. Shuningdek, Odil Yoqubov asarlarida adolat, halollik, insoniy burch va ma’naviy mas’uliyat g‘oyalarining badiiy talqini ko‘rsatib beriladi. Tadqiqot natijalari yozuvchi merosining zamonaviy o‘zbek nasri rivojidagi o‘rnini va bugungi o‘quvchi uchun ahamiyatini asoslashga xizmat qiladi.
Kalit so‘zlar: Odil Yoqubov, o‘zbek adabiyoti, o‘zbek nasri, roman, badiiy mahorat, adolat, ma’naviyat, “Ulug‘bek xazinasi”, “Diyonat”, xalq yozuvchisi.
Annotation. The article examines the life and creative path of Odil Yoqubov, a prominent representative of Uzbek literature and People's Writer of Uzbekistan. Drawing on his works "Ulugbek's Treasure," "Diyonat," "Adolat manzili," it analyzes his central themes, artistic skill, and socio-ethical views. It also shows how the ideas of justice, integrity, human duty, and spiritual responsibility are portrayed in his prose. The findings help establish the place of his legacy in the development of modern Uzbek prose and its significance for today's readers.
Keywords: Odil Yoqubov, Uzbek literature, Uzbek prose, novel, artistic skill, justice,

spirituality, "Ulugbek's Treasure," "Diyonat," People's Writer.
Аннотация. В статье освещаются жизнь и творческий путь Одила Ёкубова, крупного представителя узбекской литературы, народного писателя Узбекистана. На примере его произведений «Сокровищница Улугбека», «Диёнат», «Адолат манзили» анализируются характерные для его творчества темы, художественное мастерство и социально-нравственные взгляды. Также показывается художественная трактовка идей справедливости, честности, человеческого долга и духовной ответственности в его прозе. Результаты исследования служат обоснованию места наследия писателя в развитии современной узбекской прозы и его значения для сегодняшнего читателя.
Ключевые слова: Одил Ёкубов, узбекская литература, узбекская проза, роман, художественное мастерство, справедливость, духовность, «Сокровищница Улугбека», «Диёнат», народный писатель.

XX asr o‘zbek adabiyoti murakkab ijtimoiy-siyosiy sharoitda shakllandi. Shu davr ijodkorlari orasida Odil Yoqubov alohida o‘rin tutadi. U inson va jamiyat munosabatlari, shaxsning axloqiy tanlovi, halollik va xiyonat mavzularini chuqur ruhiy tahlil bilan yoritgan yozuvchi sifatida tanilgan. Maqolaning maqsadi uning hayoti va ijodiy faoliyatini, badiiy mahoratiga xos jihatlarni va asarlaridagi ijtimoiy-axloqiy g‘oyalarni ko‘rsatishdir.

Odil Yoqubov 1926-yil 20-oktyabrda Janubiy Qozog‘istondagi Qarnoq qishlog‘ida tug‘ilgan. 1951–1956-yillarda O‘rta Osiyo Davlat universitetida (hozirgi O‘zbekiston Milliy universiteti) tahsil olgan . Mehnat faoliyati davomida u O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasida adabiy maslahatchi, “Literaturnaya gazeta”ning O‘zbekistondagi maxsus muxbiri, “O‘zbekfilm” kinostudiyasida bosh muharrir, G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyotida bosh muharrir o‘rinbosari bo‘lib ishladi. 1982–1987-yillarda “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasining bosh muharriri, 1987–1991-yillarda O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi boshqaruvining birinchi kotibi vazifasini bajardi . Yozuvchi 2009-yil 21-dekabrda Toshkentda vafot etdi.Uning xizmatlari yuksak baholangan: 1977-yilda Hamza nomidagi O‘zbekiston Davlat mukofoti, 1985-yilda “O‘zbekiston xalq yozuvchisi” faxriy unvoni, shuningdek, bir qator orden va medallar bilan taqdirlangan .

Yoqubov ijodida ikki yetakchi yo‘nalishni ajratish mumkin. Birinchisi tarixiy mavzu bo‘lib, “Ulug‘bek xazinasi” romanida buyuk olim va hukmdor Mirzo Ulug‘bek taqdiri, ilm va hokimiyat o‘rtasidagi ziddiyat badiiy talqin qilinadi. Ikkinchisi zamonaviy hayot va axloqiy tanlov mavzusi: “Diyonat”, “Adolat manzili”, “Er boshiga ish tushsa…”,

“Oq qushlar, oppoq qushlar” kabi asarlarda mansab va vijdon, burch va manfaat o‘rtasidagi munosabat o‘rtaga qo‘yiladi. Adabiyotshunoslikda bu asarlar o‘zbek adabiyotida psixologik romanning shakllanishiga zamin bo‘lgani qayd etiladi. Yozuvchi dramaturgiyada ham samarali ijod qilgan: “Chin muhabbat”, “Olma gullaganda”, “Yurak yonmog‘i kerak”, “Fotihi Muzaffar yoxud bir parivash asiri” kabi pyesalari o‘zbek teatri tarixida muhim o‘rin tutadi . Bundan tashqari, u Abdulla Qodiriy, G‘afur G‘ulom, Oybek, Abdulla Qahhor kabi ijodkorlarga bag‘ishlangan adabiy portret va maqolalar yaratgan, tarjimon va publitsist sifatida ham faoliyat yuritgan.

Asarlarning markaziy g‘oyasi adolat tushunchasi bilan bog‘liq. Yoqubov uchun adolat huquqiy me’yor bo‘lish bilan birga inson ma’naviyatining asosidir. Qahramonlar uchun halollik kundalik qoida emas, balki shaxsni saqlab qolish sharti sifatida ko‘rinadi. Muallif ijobiy qahramonlarni ideallashtirmaydi: ularning shubhalari, ikkilanishlari va xatolari ham tasvirlanadi, bu obrazlarga hayotiylik beradi.

Odil Yoqubov adolat, halollik, burch va ma’naviy mas’uliyat g‘oyalarini yuksak badiiy darajada talqin qilgan yozuvchi sifatida o‘zbek nasri tarixida munosib o‘rin egallaydi. Uning asarlari tarixiy haqiqat va zamonaviy hayot muammolarini uyg‘unlashtirgani, psixologik chuqurligi bilan ajralib turadi. Merosini o‘rganish bugungi adabiy jarayonni tushunish va yosh avlod ma’naviy tarbiyasi uchun ahamiyatlidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Yoqubov O. Diyonat. – Toshkent: G‘. G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1978.
2. Yoqubov O. Saylanma (3 tomlik). – Toshkent: G‘. G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1985–1987.
3. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. Birinchi jild. – Toshkent, 2000.
4. Xudoyberganov N. Parvoz davom etadi. – Toshkent: G‘. G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1980.
5. Mirvaliev S. O‘zbek adiblari. – Toshkent: Yozuvchi, 2000.
6. Karimov N. va boshq. XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1999.